

RAUF PARFI SHE'RIYATIDA QO'LLANILGAN TOPONIMLARNING BADIY TALQINI

To'xtayeva Lola Rustam qizi

BuxDU Adabiyotshunoslik: o'zbek adabiyoti

mutaxassisligi 2-bosqich magistri

Annotatsiya: Mustaqillik davri she'riyatida toponimlarning poetik talqin etilishi shu hudud haqidagi fikr-mulohazalarimizni boyitadi. She'rlardagi joy nomlarining aks etishi esa, jummlarning yanada tarixiyligini oshiradi. Ushbu maqolada Rauf Parfining ijodida qo'llanilgan toponimlarni misollar asosida ochib berishga harakat qilamiz.

Kalit so'zlar: Mustaqillik, ijod, ramz, o'lka, madhiya, ijodkor, asar, toponim, nom, vatanparvarlik, tarix, tinchlik, ozodlik.

Istiqlol davri ijodkorlari orasida Rauf Parfi ham alohida ajralib turadi. Uning she'rlari millatning erk yo'lidagi yo'qotishlari ruhida bitilgan. Rauf Parfining ijodida bir qancha toponimlarni uchratishimiz mumkin. Ulat she'ring tarixiyligini oshiradi hamda bizga joy nomlari bilan bog'liq voqea-hodisalarni bilib olishga imkon beradi. Ushbu ijodkorning ko'plab she'rlarida Turkiston nomini uchratamiz. Bu nomning ramzlari beqiyosdir, ularning bir qanchasini tahlil davomida ko'ramiz:

Biz sumar nishoni, Abut -Turk qoni,

Biz – o'zbek, jahonga qudrat-u ko'rkimiz.

Turk -sug'ut makoni, samandar joni

*Biz – Turon, Turkiston, biz asl turkmiz.*¹

Turon, Turkiston bular bir joy nomi hisoblanadi. Parchada Turkiston-birlik, oila ma'nosida qo'llangan va bu she'r turkiy xalqlarning qanday paydo bo'lgani, uning

¹ Рауф Парфи. Сакина. Т.: 2012. – Б.527(bundan keyin ushbu manbaga murojaat qilganda sahifani ko'rsatish bilan chegaralanamiz)

asoschisi kim bo'lgani haqida ma'lumot beradi. Turon – ulug'lik ma'nosida kelgan, ya'ni shoir “ulug'vorlik” va “birlik” ma'nolarini ifoda etgan. Bundan tashqari, she'rda turkiy urug'larning nomlari sanab o'tilib, Rauf Parfi ularning madaniyatini tasvirlagan.

*... Izlaganim yolg'iz muhabbat,
Sabolarga she'rlar kuylayman,
Toqatimga tilayman toqat
Oh Turkiston, seni o'ylayman...(229-bet)*

Ushbu parcha Turkiston nomining baxt, tinchlik ramzida tasvirlangan o'rniga misol bo'la oladi. Inson har tomondan, har yerdan baxt, tinchlik, ozodlikni izlaydi, Bu she'r vatanparvarlik ruhida yozilgan bo'lsa-da, tub zamirida “baxt” va “ozodlik” tushunchalarini tarannum etgan.

*Ona tilim, sen ruhimning qanoti,
Abut turk nafasi, Oltoy chechagi,
Xun davridan omon qoldi G'iroting,
Qutlug' Enasoyning ezgu ertagi.
O'rxun bo'ylarida toshga aylanding,
Ko'klarga sanchilding, Turon bo'lding Sen.
Mangulik safarga qachon shaylanding?
Qachon bu alamga, kuchga to'lding Sen (336-bet)*

Bir xalqning paydo bo'lishiga ketgan fursat va undagi ro'y bergan jarayonlarni yuqoridagi bu she'rda ko'rishimiz mumkin. Oltoy o'lkasi (ruscha: Altayskiy kray) – Rossiya Federatsiyasi tarkibidagi o'lka. 1937-yil 28-sentabrda tashkil etilgan. G'arbiy Sibirning janubida, Ob daryosi yuqori oqimi va uning irmoqlari – Biya va Katun havzalarida joylashgan. G'arbiy Sibir iqtisodiy rayoniga kiradi. O'rxun-Enasoy bitiklari V-VII asrlarda qadimgi turk tilidagi va yozuvidagi tarixiy yodgorlik sanaladi. Bitiktosh Mo'g'ulistondagi O'rxun va Janubiy Sibirdagi Enasoy (Yenisey)daryolari sohillarida topilgani uchun ham shunday nomlangan. Mo'g'ulistondan Shimoliy dengizlargacha,

Urldan Saxalinga qadar davom etgan hududda shu yozuvdagi yodnomalar uchraydi. Shimoliy Kavkazda XV asrda ham O'rxun yozuvidan foydalanilgan. Bitiktosh ikki qismdan: Kichik va Ulug' bitikdan iborat. Vatan manfaati yo'lida xizmat qilish, mamlakatning mustahkam, osoyishta bo'lishi uchun kurash bitiktoshlarda bosh maqsad ekani aytiladi. Asarda Tabg'ach, Tibet, Sug'd, Turgash, Qirg'iz kabi joy nomlari tilga olingan. Enasoy bitiklari marsiya va madhiya janrlarining qadimgi turk adabiyotidagi ildizlari haqida tasavvur beradi.²

*Kezar bo'ldim fazolarda man,
Oq to'lqinlar ummoni ichra,
Yuragimda qayg'u -shodumon,
Aylanurman Samarqand uzra.(380-bet)*

“Samarqand uzra” she'rida Samarqand shahrining “ulug'vorlik”, “go'zallik” ramzi ekanligini his qilamiz. Chunki, “kezar bo'ldim fazolarda man” jumlasini orqali Samarqanddagi sayohatining go'yoki osmongacha chiqish darjasida tasvirlaydi. Darhaqiqat, bu she'rda shoir “Samarqand sayqali ro'yi zamin” ya'ni Samarqand yer yuzining sayqali deb bejizga aytilmaganini isbotlamoqchi bo'lgan. Bundan tashqari, Samarqand orqali xalqimizning urf odatlari, madaniyatini ham o'zida nayomon etgan. Omon Matjon ijodida ham Samarqand obrazining mushtarak jihatlari mavjud.

*Sog'indim. Kun-tunlar qatlandi qallda
Rangin ipaklari sog'inchning.
Agar yoysam yo'llardagi simyog'ochlarga
Zorlanib yetardi Samarqand qadar.³ (45 bet)*

Ijodkor yuqori jumlar orqali sog'inchning naqadar uzun ekanligini ta'kidlagan. “Samarqand qadar” deyilishi ham bejis emas. Samarqand – o'zbek she'riyatida tarixiy xotira, muqaddas makon va sog'inch sifatida talqin qilinadi.

² Manba: Wikipedia <https://share.google/L8rnk7m0PkN9qDxWT>

³ Omon Matjon. Turkiy adabiyot durdonalari. – T.: “O'zbekiston”, 2002. – B.309

*... Qopqoqli og‘zini ochar-u yopar,
 Bu yerda yelim va siyoh hidlari,
 Bu yerda qog‘ozlar bo‘lmoqda nobud
 Garchi voqif erurlar har narsadan
 Ey bechora varaq, qafasga tushding.
 Telefonchi qizning ovozi chiqar,
 Jaranglar sovuq: “Falonchi –falonchiyev”,
 Javob bermayotir... Allo, Farg‘ona...
 Turkiston?! Oltinchi xonaga kiring
 Bu yerda so‘rrayib turmang azizim.
 Omonat kassasin qulog‘i tirband,
 O‘likning og‘zidek ochiq daricha.(388-bet)*

Bu she‘r Turkiston jumhuriyati davrini o‘zida aks ettirgan. Chunki o‘sha davrda Turkiston jumhuriyatining general gubernatorligi Farg‘ona okrugida joylashgan edi. Farg‘ona endi bu yerda go‘zallik emas, ma‘lum siyosiy davrning voqelarini gavdalandiruvchi nom vazifasini o‘tagan. Bugungi kunda she‘rlarda toponimlarning aks etishi tarixiylikning ramzi hisoblanadi. Ijodkorning joy nomlari bilan bog‘liq she‘rlarida davr va makonning uyg‘unligini ko‘rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Omon Matjon. Turkiy adabiyot durdonalari. – T.: “O‘zbekiston”, 2002. – B.309
2. Рауф Парфи. Сакина. Т.: 2012. – Б.527
3. Manba: Wikipedia <https://share.google/L8rnk7m0PkN9qDxWT>
4. Норматов У. Ижод сеҳри. -Т.: “Шарқ” нашриёт – матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2007, 352 б.
5. Qozoqboy Yo‘ldoshev. Ochqich so‘z. – Toshkent: Tafakkur, 2019. 688 b.